

Boshlang'ich sinflarda samarali dars o'tish usullari

Abduraimova Gulnoza Sharif qizi

Qarshi Davlat Universitetining Pedagogika Instituti magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun darsni tashkil qilish jarayonida didaktik o'yinlar va interfaol metodlardan foydalangan holda samarali dars o'tish haqida fikr yuritilgan.

Tayanch tushunchalar: Zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interfaol, kreativ, fikriy hujum.

Mamlakatimizda mustaqillik tantana qilgan kundan buyon yoshlar masalasiga alohida e'tibor berilib kelinmoqda. Bugungi kunda mustaqil va erkin fikrlaydigan har tomonlama rivojlangan yoshlarni tarbiyalash har bir tarbiyachi va murabbiyning emas balki har biro ta-onaning ham muqaddas burchidir. Buni birinchi prezidentimiz I.A.Karimovning "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" nomli kitoblarida keltirilgan quyidagi jumalarni:

"Biz xalqimizning dunyoda hech kimdan kam bo'lmasligi, farzandlarimizning bizdan ko'ra kuchli, bilimli, dono va albatta baxtli bo'lib yashashi uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etayotgan jonimiz, bu borada ma'naviy tarbiya masalasi, hech shubhasiz, beqiyos ahamiyat kasb etadi. Agar biz bu masalada xushyorlik va sezgirligimizni, qat'iyat va mas'uliyatimizni yo'qotsak, bu o'ta muhim ishni o'z holiga, o'zi bo'larchilikka tashlab qo'yadigan bo'lsak, muqaddas qadriyatlarimizga yo'g'ringanva ulardan oziqlanib ma'naviyatimizdan, tarixiy xotiramizdan ayirib, oxir-oqibatda o'zimiz intilgan umumbashariy taraqqiyot yo'lida chetda qolishimiz mumkin. O'z tarixini bilmagan, kechagi kunini unutgan millatning kelajagi yo'q" ligini alohida ta'kidlab o'tgan.

Bola maktabga qadam qo'yganda maktabgacha bo'lgan davrdagi o'yin faoliyatidan o'qish faoliyatiga qadam qo'yadi. Shuning uchun maktabda o'qitiladigan bilim, ko'nikma va malakalarni egallashga qiyinaladi. Ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarni bilim, ko'nikma va malakalarni yetarlicha o'zlashtirishlarini nazorat qilish va sharoit yaratib berish, ularni darsga qiziqitirish lozim.

O'quv tarbiya jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilariga samarali dars o'tish uchun zamonaviy pedagogik texnologiyalardan va usullardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Ularni darsga qiziqishini orttirib, ta'lim va tarbiyaviy jarayonni tez va samarali o'zlashtirishlari uchun interfaol va kreativ metodlar, didaktik o'yinlardan foydalanish kerak. Bu metodlar o'quvchining mavzuni tushunishini osonlashtiradi va obyektiv voqelikka oid bilimlarini chuqurlashtiradi.

Darsning samaradorligini oshirish uchun interfaol metod va didaktik o'yinlardan foydalanish uning samaradorligini oshirish bilan birgalikda nazariy ma'lumotlarni bilish faoliyatini kuchaytiradi.

Pedagogik texnologiyalarda metodlardan o'rinli foydalanish qisqa vaqt ichida muayyan nazariy bilimlarni o'quvchilarga yetkazib berish, ularda ma'lum faoliyat yuzasidan ko'nikma va malakalarni hosil qilish va nazorat qilish kabi vazifalarni bajaradi. Darsda belgilangan ta'lim-tarbiyani berishda uning xususiyati va mazmuni to'liq hisobga olinib, metodlar to'g'ri tanlansa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Darslarda biz bir qancha metodlardan foydalanishimiz mumkin.

Ularga quyidagilarni: "Sinkveyn texnologiyasi", "Fsmu texnologiyasi", "Ven diagrammasi", "Baliq skeleti", "Kungaboqar texnologiyasi", "Fikriy hujum", "3x4 texnologiyasi", "Zigzag" va boshqalarni misol keltirishimiz mumkin.

"Fikriy hujum" metodi A.F.Osborn tomonidan tavsiya etilgan bo'lib, bunda o'quvchilar soni 15 nafardan oshmasligi kerak. Bu metod o'quvchilarning mashg'ulot jarayonida faolligini ta'minlab, ularni erkin fikr yuritishga rag'batlantiradi hamda bir xil qolipdagi fikrlashdan ozod etishga o'rgatish uchun xizmat qiladi. O'yinning shartida har bir ishtirokchi o'rtaga tashlanayotgan fikrga nisbatan tanqidni mutlaqo ta'qiqlash, har qanday luqma va hazil-mutoyibalarni rag'batlantirishdan iboratdir. Metod jarayonida o'quvchilar o'zlarini erkin tutsalar, o'z fikrlarini bayon qilishlari osonlashadi. Bu metodni o'qish darslarida "Donishmand o'g'il" ertagida qo'llaymiz. Ertakdagi voqealar rivojidadagi har bir gap o'quvchilarga beriladi va ular o'z fikr-mulohazalarini bayon qiladilar. Bu quyidagicha bo'ladi:

Har bir shaharda orttirilgan do'st u yerga bir qo'rg'on qurish bilan teng" degan gapni o'rtaga tashlasak, birinchi o'quvchi quyidagi fikrlarni aytishi mumkin:

“Shaharlarda qurilgan qo'rg'onlar hech qachon do'st bo'lmasligi mumkin, lekin u yerdan orttirilgan do'stlarning mehr-oqibati va ko'rsatgan hurmati har qanday hashamatli uylardan ustun turadi”

Ikkinchi o'quvchi:

“Insonlar bilan mehr oqibatli bo'lish, ahil-inoqlikda yashash insoniylik fazilatidir”.

Uchinchi o'quvchi:

“ Mehrli va oqibatli do'st uzoqdan kelgan do'stiga yaxshi munosabatda bo'ladi, unga uyidan, mehridan joy beradi va yordam qo'lini cho'zadi.

To'rtinchi o'quvchi:

“Kimsasiz qo'rg'on insonga boshpana bo'lishi mumkin, unga mehr taftini bera olmaydi. Bobolarimiz bekorga aytishmagan: Inson taftini inson oladi”.

O'quvchilar xuddi shu tarzda o'z fikrlarini bayon qiladilar va fikrlash qobiliyatini o'stiradilar.

“Avtofokus metodi”

Sinfda zerikarlidars muhitining hosil bo'lishini asosiy sabablaridan biri – o'quvchilarning darsga diqqatini qaratmasligi va dangasaligidir. Ularning diqqatini darsga qaratish mas'uliyati albatta o'qituvchida bo'ladi. Bu metodda darsga ixtiyoriy e'tiborini qaratadi.

Bu metodni ona tili darslarida qo'llasak, bizga oq va qizil kartochkalar kerak bo'ladi. Dars boshida o'quvchilarning har biriga bu kartochkalar aralash holatda tarqatiladi. Dars jarayonida o'qituvchi oq kartochkali o'quvchilarni turg'izadi va ularning istalgan biriga o'tilgan mavzu “Son” so'z turkumi mavzusidan quyidagi savolni beradi:

“Son so'z turkumi deb qanday so'z turkumiga aytamiz?”

O'quvchi quyidagicha javob beradi:

Predmetning miqdorini, sanoq jihatdan tartibini bildiruvchi so'zlar son deyiladi. Nechta?, qancha?, nechanchi so'roqlariga javob bo'ladi.

Savolga javob bergan oq kartochkali o'quvchiga 1 ball beriladi.

Keyin yana dars davomida qizil kartochkalilarga savol beriladi. Ular ham javob bersa ball qo'shib boriladi. Shu tarzda bir necha marotaba dars oxirigacha shu usul qo'llanadi.

Kelajagimiz davomchilari bo'lgan yoshlarni to'g'ri tarbiyalash va ta'lim berish o'qituvchining qiziqishi, qobiliyati va kreativligiga bog'liq. U o'quvchilarni darsga qiziqitira olishi, o'quv materiallarini to'g'ri tushuntirishi, bolalarga ijobiy-tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishi, dars jarayonida metodlardan to'g'ri foydalana olishi, o'quvchilar jamoasini tashkil etib, ularga rahbarlik qilish, pedagoglarga xos odobga ega bo'lishi, har bir o'quvchiga individual muomalada bo'la olishidir. Shundagina u o'quvchilarni o'quv jarayoniga jalb eta oladi va darsni samarali tashkil qiladi.

Adabiyotlar:

1. Karimov I. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. T., 2008
2. M.F Qurbonova, S.B. Qorayev, Uzluksiz ta'limda o'quvchilarning bilish kompetentsiyasini shakllantirish yo'llari//Uzluksiz ta'lim, 2020 Maxsus son. 57-62 bet
3. Tolipov O'.Q. Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tabiiy asoslari. – T.: “Fan”, 2006, 150 bet
4. Asranov S. Yangi pedagogic texnologiyalar va ularning imkoniyatlari. Zamonaviy pedagogic texnologiyalarning tashkiliy va ilmiy-metodik muammolari. Ilmiy-amaliy anjuman materiallari to'plami. - T.: 2005, 41-bet.